



## Deictic units in Uzbek literary works and their role in the grammar of the Uzbek language

Nargiza MUSLIMANOVA<sup>1</sup>

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

15 November 2024

#### Keywords:

deixis,  
deictic units,  
Deixis phenomenon,  
space and time,  
deictic units for the  
description of personality,  
pragmatic analysis of  
a literary work.

### ABSTRACT

Deixis in literary works, the linguistic-poetic analysis of units and grammatical means is one of the requirements of modern linguistics. The phenomenon of deixis is a sign as a linguistic unit or set expressed by lexical and grammatical means. The study of the language of a work of art in a sociopragmatic aspect largely leads to the study of some features of the grammar of the language. These include deictic units and grammatical means in literary works. In this regard, this article provides a Deixis analysis of the stories of Kuchkar Norkobil in accordance with their relationship to space and time.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6-pp88-92>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## O'zbek badiiy asarlarida deyktik birliklar va ularning o'zbek tili grammatikasidagi tutgan o'zni

### ANNOTATSIYA

#### Kalit so'zlar:

deyksis,  
deyktik birliklar,  
deyksis hodisasi,  
makon va zamon,  
shaxs tavsifiga ko'ra deyktik  
birliklar,  
badiiy asar pragmatik tahlili.

Badiiy asarlarda deyksis birliklar va grammatik vositalarning lingvopoetik tahlili zamonaviy tilshunoslik talablaridan biri hisoblanadi. Deyksis hodisasi – leksik va grammatik vositalar orqali ifodalanadigan til birligi yoki majmui sifatidagi ishora. Badiiy asar tilining sotsiopragmatik aspektida o'rganilishi ko'p jihatdan til grammatikasining ayrim xususiyatlarini tadqiq qilishga olib keladi. Jumladan, badiiy asarlardagi deyktik birliklar va grammatik vositalar shular jumlasidandir. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada Qo'chqor Norqobil hikoyalarining makon va zamon munosabatiga ko'ra deyksis tahlili berildi.

<sup>1</sup> Candidate of Philological Sciences, Associate Professor, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. E-mail: nargizajon75@mail.ru

# Дейктические единицы в узбекских литературных произведениях и их роль в грамматике узбекского языка

## АННОТАЦИЯ

### *Ключевые слова:*

дейксис,  
дейктические единицы,  
явление дейксиса,  
пространство и время,  
дейктические единицы по  
описанию личности,  
прагматический анализ  
литературного  
произведения.

Дейксис в литературных произведениях и лингвопоэтический анализ языковых единиц и грамматических средств являются важными аспектами современной лингвистики. Явление дейксиса понимается как языковая единица или совокупность единиц, выраженная с помощью лексических и грамматических средств. Изучение языка художественных произведений в социопрагматическом аспекте часто направлено на исследование особенностей грамматики, включая использование дейктических единиц и грамматических форм. В связи с этим в данной статье представлен анализ дейксиса в рассказах Кучкара Норкобила, основанный на их пространственно-временных характеристиках.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida tadqiq etilayotgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarida antropotsentrizm masalasi keng o'rin olmoqda. Xususan, lingvopoetikaga oid ko'plab ishlarda badiiy asarlar nutqini o'rganish, ularni lingvistik nuqtai nazardan tadqiq qilish, tadqiqot natijalarining o'zbek tili grammatikasiga tadbiiq etilishi pragmalingvistikaning yanada rivojlanishiga zarur omil bo'lib qolmoqda. Badiiy asar tilining sotsiopragmatik aspektda o'rganilishi ko'p jihatdan til grammatikasining ayrim xususiyatlarini tadqiq qilishga olib keladi. Jumladan, badiiy asarlardagi deyktik birliklar va grammatik vositalar shular jumlasidandir. Deyksis hodisasi (grekcha "deixis" so'zidan olingan bo'lib, ko'rsatish, ishora ma'nosini anglatadi) – leksik va grammatik vositalar orqali ifodalanadigan til birligi yoki majmui sifatidagi ishora. Til birliklarining kontekst, nutq vaziyati bilan bog'liq pragmatik jihatini o'rganishga e'tibor kuchaygach, deyksis muammosi pragmatikaning tadqiq obyektini sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Deyksis nutq jarayonidagi komponentlarni va ifoda mazmunidagi denotativ komponentlarni faollashtirish uchun xizmat qiladi. Deyksis ko'lami nutq akti ishtirokchilarini (rolli deyksis), ya'ni so'zlovchi va adresat, kishilik (1- va 2-shaxs – men, sen) va ayrim ko'rsatish olmoshlarini, xususan, predmet va shaxslarning uzoqda yoki yaqinda joylashganligiga ko'ra ishora qilinishi va h.k.larni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotlardan ma'lumki, deyktik birliklar (leksemalar) faqat matnda aniq bo'ladi. Ular nutqdan olib chiqilganda mavhumlik kasb etadi.

Nemis tilshunosi K.Brugmann birinchilardan bo'lib deyksis muammosini o'rganishni boshlab bergan. Uning ishlari keyinchalik K.Byuler tomonidan rivojlantirildi. K.Byuler "Til nazariyasi" nomli kitobida deyksisning mohiyati, turlari, deyktik birliklarning vazifasi haqida o'z qarashlarini bayon qildi. Uzoq vaqt tilshunoslikda deyktik birliklar sifatida asosan, ko'rsatish, kishilik olmoshlari, o'rin va payt ravishlari ajratildi. Ammo matnning pragmatik tahlili yuzasidan olib borilgan kuzatishlar asosida deyktik birliklarning ifoda vositalari orqali ham muloqot jarayonida ishora vazifalari amalga oshirilishi aniqlandi. Xususan, G.Ye.Kreydlin deyktik xususiyatli paralingvistik vositalarni

ishoraga xoslangan va tavsiflovchi guruhlarga ajratib o'rgandi. Olimning fikricha, xoslangan deytik xatti-harakat va imo-ishoralar faqat ko'rsatish vazifasini bajaradi. Tavsiflovchi xatti-harakat va imo-ishoralar esa ko'rsatish bilan birga so'zlovchining baho munosabati va ishora obyektining muayyan belgi-xususiyatini ifodalashga ham xizmat qiladi.

Ma'lumki, har qanday nutq jarayoni o'zaro muloqot egalarisiz, shuningdek, muloqot o'rni va u olib borilayotgan vaqtsiz amalga oshmaydi. Shuningdek, har qanday voqelik haqidagi axborot, albatta, u amalga oshgan makon va zamon, voqelik ishtirokchilari haqidagi ma'lumotni o'zida jamlaydi, hech bo'lmaganda, ularga ishora qiladi. Har qanday muloqot matnida nutq egalari, bayon etilayotgan voqelikning amalga oshish o'rni va vaqtiga ishoraning kuzatilishi deyxsisning barcha tillarda eng umumiy jihatlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Har qanday muloqot makon va zamonga bog'liq ekan, unda ishtirok etayotganlar ma'lum bir fikrni ifoda etishda deytik birliklar va vositalardan faol foydalanishadi. M.S.Ishanjanovanning "Makon deyxsis" nomli monografiyasida ular quyidagicha tasniflangan:

1) bu yer, shu yer, mana bu yer, bu yoq kabi ravishlar semantik jihatdan so'zlovchiga yaqin masofadagi makonni;

2) u yer, ana u yer, u yoq ravishlari so'zlovchiga nisbatan uzoq masofadagi makonni;

3) o'sha yer, ana o'sha yer ravishlari matnda avval tilga olingan makonni anglatadi.

Bularni biz Qo'chqor Norqobilning "Hamyon" asari asosida tahlil qilishga harakat qildik. "**Bu yerda** hamma o'z bilganicha mashq bajarayapti. Yer yuzining turli burchiga sochilib ketgan, turli-tuman zabolni **ayni shu yerda** – tog'da tongni tetik qarshilash tuyg'usi birlashtirib turganga o'xshaydi."

Xuddi shunday zamon deyxsis ham asarlarda ishlatilmaslikning iloji yo'q, chunki qanday janrda yozilishidan qat'iy nazar, albatta unda zamon deyxsis o'z aksini topadi. Masalan: "Yarim yo'lda qolgan Olim obzeyning qorasi ko'rinmaydi, **o'shandayoq** juftakni rostlagan. **Hozir** g'ujala tushib uyquni urayotgandir..." "...Eshikbon ayolning ham zardasi qaynaydi: – **Hozirgina** ketdi. Davolanib bo'ldi. Ketadi-da!" "...Men **kecha** bo'lib o'tgan voqeya, na hamyon, na Olga haqida Olim obzeyga lom-mim demadim." Misollardan ko'rinib turibdiki, payt ravishlari, payt otlari, paytga ishora qiluvchi olmoshlar vaqtga ishora qilib zamon deyxsisini ifodalagan.

Shaxs deyxsisini hosil qiluvchi o'zbek tilining deytik birliklariga shaxsga ishora qiluvchi ayrim olmoshlar, kishilarning ism-familialari, laqabi, taxallusi, nasl-nasabi, kasb-kori, unvoni, mansabi, millati, turar joyi, ijtimoiy holatini ko'rsatuvchi hamda qarindoshlik tushunchalarini ifoda etuvchi ot turkumiga mansub so'zlar; shaxslarga ishora qiluvchi barcha turdagi otlashgan so'zlar kiradi. Shaxslarga ishora qiluvchi deytik birliklarga o'zbek tilidagi egalik va shaxs-son qo'shimchalari ham mansub. "**Olim obzey** qo'ltig'i ostidagi yostiqni boshiga olib chalqancha yotib shiftga tikilib qoladi." "**Chexovdan** saboq bergan **Olimboyning** posongisini pasaytirib qo'yish mavridi hozir. (Shu asar **adibning** avval chop etilgan kitoblarida berilmagani, oliy san'at dargohlarida ham tilga olinmasligi, **chexovshunoslar** nazaridan chetda qolganini-yu, o'zbek tiliga esa tarjima ham qilinmaganini yaxshi bilardim)." "**Zehni zo'r** zaminni zuvala qiladi. **Tatar** hamxonamga yana tan beraman. Yo'q, **bu** shunchaki o'qimagan, kosa tagidagi nimkosada qatiq **ivitadiganlar xilidan**. **Men** anchagacha uxlay olmayman. **Obzey** xurрак ota boshlaydi. H-ye-yey, **ukqag'ar tatar**. **U** sahnalashtirgan spektakllar ham dahshat bo'lsa kerak. Xudo xohlasa, Qozonga boraman. Albatta, **uning** spektakllarini tomosha qilaman..."

Deyktik birliklarning turli sathga mansub universal xususiyatlari asosida ayrim tilshunoslar ularni ishora maydoni tizimiga birlashtiradilar. Xususan, K.Byuler tilning deyktik tizimini ishora maydoni sifatida tavsiflaydi va bu maydon markazida *men – shu yerda – hozir* so'zlari o'rin olganligini qayd etadi. Bunda *men* shaxs tushunchasiga, *shu yerda* makon tushunchasiga, *hozir* zamon tushunchasiga ishora vazifasini bajaradi. Ammo bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, bu kabi deyktik birliklar orqali ifoda etilgan ishora matndan tashqarida mavhum bo'lib qoladi. Masalan, "*U shu yerda yuribdi*" gapida qo'llangan *u, shu yerda* deyktik birliklari aniq subyekt va aniq makon haqida tasavvur uyg'ota olmaydi. Bunday nutqiy muloqot matnida qo'llanuvchi bu kabi deyktik birliklar semantik qiymatga ega bo'lmaydi degan xulosaga kelmaslik lozim. Matndan uzib olingan deyktik birlikning mavhum ma'nosiga faqat matn tahlili orqali aniqlik kiritiladi.

Qo'chqor Norqobilning "Hamyon", "Atirgul tabassumi", "Ertasiga dushanba edi" kabi hikoyalari tahlili asosida deyksisning shaxs, zamon, predmet, makon, belgi, emotsional va ruhiy holat, muayyan voqelikka hamda matn tarkibiy qismlariga ishora qiluvchi deyksis kabi turlarini kuzatish mumkin.

Badiiy asalar misolida quyidagi shaxs deyksisiga ishora qiluvchi otlarni misol keltiramiz:

1. Kishilarning ismi-sharifini anglatuvchi atoqli otlar aniq shaxslarga ishora qilib, shaxs deyksisini shakllantiradi, qo'yilgan laqab, taxallus kabilarda ham shaxsga ishora qilish belgisi kuzatiladi. Kishilarga qo'yilgan laqab ortida ham shaxsning, ya'ni laqab egasining xarakter-xususiyati, dunyoqarashi, ruhiyati yashiringan bo'ladi. Bu esa laqabning pragmatik ma'no ifodalashini ko'rsatadi. Masalan: 1) **Ra'no Akromovnaning** tashqaridan razm solsang, baland devor ortidan tirtayibgina ko'ringan uyi, ichkari hatlashi hamono qasira-qusur qasrga aylandi-qoldi. ("Ertasiga dushanba edi") 2) Yarim yo'lda qolgan **Olim obzeyning** qorasi ko'rinmaydi, o'shandayoq juftakni rostlagan. ("Hamyon") 3) **Adib** xursand. **Adiba** shod. Ikkita dramasi qardosh o'lkalar teatri sahnasiga chiqdi. **Adib** shod. **Adiba** xursand. Keyin... Keyin allaqaerdan **Qudrat Imkon** degan **muhibu muxlis** paydo bo'ldi-da, **adib** ijodining ashaddiy **targ'ibotchisiga** aylandi. ("Atirgul tabassumi")

2. Qarindoshlik tushunchasini anglatuvchi otlar shaxs deyksisini ifodalaydi. Masalan: 1) Kechqurun **xotini** ishdan keldi... – Elektron pochtaga Londondan xat keldi, – davom etdi **ayoli**. – Adabiy tanlovda ishtirok etish uchun boshqa yozuvchini tanlashibdi... ("Atirgul tabassumi") 2) Hamma bir-biriga **qavmi-qadrdon**, hamma bir-biriga tabassum hadya etadi, hamma bir-biriga xayrli tong tilaydi – tongni ochiq yuz bilan qarshi oladi. ("Hamyon") 3) **Xotini** ertalabdan quloq-miyasini qoqib qo'liga berdi. "Boraylik-a, boraylik...", deb yebgina qo'ydi, oxiri ko'ndi: "Bo'pti, tez qaytamiz...". **Erning** ensasi qotdi, esnadi: "Ayol boshi bilan shugina ham rahbarparast-a?" ("Ertasiga dushanba edi")

3. Unvon, ilmiy daraja, lavozim, mansab kabilarni ifoda etuvchi otlar shaxslarga ishora qiladi. Masalan: 1) Bozordan kelgach mana shu hikoyani yozib tugatdim. Xudo xohlasa, Toshkentga qaytgach, hikoyamni rus tiliga tarjima qildiraman... keyin uni Olgaga, **"Femida" advokatlik byurosi rahbari** Olga Ivanovaga ham jo'nataman. ("Hamyon") 2) Endi nima qilsin, buni tanirmikin, qayerdan taniydi, shunday katta idoraning qanchalab tizimlari ichida, ko'zga chalinavermaydigan o'rtacha bir muassasadagi **rahbarning muovini** bo'lsa... ("Ertasiga dushanba edi")

4. Kishilarning kasb-korini anglatuvchi otlar shaxslarga ishora qilib, shaxs deyksisini hosil qiladi. Masalan: 1) – Sodda qilib tushuntirib qo'ya qolmabsiz-da, **konchi** tog'ma-tog' yurib kon qidiradilar... ("Ertasiga dushanba edi") 2) U ba'zida hikoyaning ham

o'z ruhi bo'lishi, **yo'zuvchini** shu ruh gohida ergashtirib ketishini ich-ichidan his qilgan. ("Atirgul tabassumi") 3) Bir kuni serbiyalik tanish **noshirdan** xat oldi. **Adibning** Rossiyada chop etilgan yana bir kitobini ruschadan serb tiliga tarjima qilayapti. ("Atirgul tabassumi")

5. Kishilarning yoshi bilan bog'liq xususiyatni anglatuvchi otlar shaxs deyksisini shakllantiradi. Masalan: 1) – Biz sizni sog'inib qolayapmiz, – jilmaydi xotini. – Kechqurun **nevarangiz** ham kelmoqchi. ("Atirgul tabassumi") 2) Sihatgoh hovlisiga gandarab kiraman. Ertalabki xo'ppa semiz **amaki** endi menga qo'l silkib qo'yadi. ("Hamyon")

6. Kishilarning jinsini anglatuvchi otlar shaxs deyksisiga ishora qiladi. Otlashgan so'zlar ham shaxs deyksisini ifodalaydi. Masalan: 1) Adib karavoti yonidagi kursiga kelib cho'kkan ko'yi qo'lidagi yelim xaltadagi meva-chevalarni tumba ustiga taxlayotgan mehribon va munis **ayolga** zavq bilan termildi. ("Atirgul tabassumi") 2) ...Ertasiga bozorga bordik. Olim obzeyning **xotini** Lyubaga shuba oldik. ("Hamyon") 3) ... E-ey, ana, kelayapti, **amaking** o'zi kelayapti, xo'jayin qayerda qoldiykin? Ko'ngliga noxushlik indi. Pastga, salobatli **amaki** tomon yugurgilab ketdi... ("Ertasiga dushanba edi")

Qo'chqor Norqobil hikoyalari tarkibidan tanlangan misollar tahlilidan ma'lum bo'ladi, o'zbek tilining deytik birliklari turli-tumandir. Bunga biz shaxs va zamon deyksisini hosil qiluvchi birliklar asosida guvoh bo'ldik.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lutfullayeva D., Davlatova R. O'zbek muloqot matnining deytik birliklari// O'zbek tili va adabiyoti. 2011. №6, 32-33-b
2. Qaraeva B., Musulmanova N. Toxir Malik asarlarida deytik birliklar ifodasi / International scientific and practical conference "Innovative approaches in study of the language, literature, translation, tourism and cultural heritage on the silk road", Samarkand, may 3-4, 2024, <https://doi.org/10.5281/zenodo.11101017>
3. Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка. -М., 2000. С. 203.
4. Крейдлин Г.Е. Механизмы взаимодействия вербальных и невербальных единиц в диалоге. Дейктические жесты и речевые акты. Маилто: gekr@iitp.ru
5. Қўчқор Норқобил <https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/qochqor-norqobil/qochqor-norqobil-atirgul-tabassumi-hikoya/>
6. Қўчқор Норқобил, Самодил: ҳикоялар. –Тошкент: Янги асп авлоди, 2018. Б–400.
7. Лингвистический энциклопедический словарь: <http://tapemark.narod.ru/les/128d.html>.
8. Musulmanova N. R. Lingvopoetika – til va adabiyot mushtarakligi. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.786. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7786551>
9. Ишанжанова М.С. Макон дейксиси: монография. –Андижон, 2023, Б-128.